

Boshlang'ich Sinf O'quvchilarida Mustaqil, Erkin Fikrlay Olish Ko'nikmalarini Shakllantirish

Sattarova Iroda Muradaliyevna¹

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida mustaqil hamda ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlodga g'amxo'rlik qilish, ularning erkin fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr bildirilgan .

Kalit so'zlar: ta'lim- tarbiya, intellektual salohiyat, yosh avlodga g'amxo'rlik, yuksalish, imkoniyat, ijodiy fikr, muammoli o'qitish.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi va ta'lim-tarbiya olishi, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit va samarali mexanizmlar yaratishdan iborat. Fan va texnika yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini yanada rivojlantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ushbu fikrlarini g'urur bilan eslaymiz: "...birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. *"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"*..." [1]

Yoshlar – bizning kelajagimiz, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida jismoniy sog'lom, ma'nan yetuk, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hamda ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlodga g'amxo'rlik qilishdek ezgu maqsad mujassam.

"...Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz..." [3].

Prezidentimiz Sh.Miromonovichning bu bildirgan fikrlari biz yoshlarni yanada yuksak cho'qqilarga erishish uchun tinim bilmay izlanishimiz, o'rganishimizga turtki bo'ladi.

Respublikamizda barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotgani, tub ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlarini birinchi o'ringa ko'tarilayotgani, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas. Buning eng birinchi sabablaridan biri esa mamlakatimizda axoliga, ayniqsa yoshlarga berilayotgan e'tibor, imkoniyat deb bilamiz.

Bunga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ushbu satrlarida ham guvohi bo'lamiz: "...Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarmizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur..." [4]

¹ ADPI, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi



Yangi pedagogik bilimlar ko‘lami Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo‘nalishlari erkin shaxsni shakllantirish muammolariga qaratilyapti. Bugungi kunda ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘limning turli o‘qitish metodlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

“...Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz...” [3]

Shundan kelib chiqib o‘quv jarayonlari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta‘lim olishga shaxsan mas‘ullikni his qiladilar.

Ayni paytda, har qanday o‘quv maskanlarida muammoli o‘qitish texnologiyasi samarador hisoblanadi. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish bo‘lib u ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

“...Shu maqsadda **“...YANGI O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”**, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz...” [2]

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini hamda savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi.

Muammoli vaziyatdan chiqq olish hamma vaqt muammoni, ya‘ni — nima

noma‘lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog‘langan.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo‘lsak, u, avvalombor, o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U o‘quvchini intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya‘ni — faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo, muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammosi shakllanadi. O‘qitish jarayonida o‘quv muammosining muhim belgilari ham mavjud.

O‘quv muammosini yechish jarayonida o‘quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o‘ylab topishga oid farazlar, g‘oyalar qo‘yish hamda uni asoslashdir.

O‘quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Muammoli o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina o‘quvchilar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo‘lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Muammoli o‘qitish natijasida o‘quvchilarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda mavzu bo‘yicha turli g‘oyalar topish, uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topish va bilimlarni bir muammodan boshqasiga ko‘chirish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Fikrlashning eksentrikligini rivojlantirish, muammolarni “taqlid” yordamida hal qilish uslubidan voz kechish kerak. Aynan boshlang‘ich maktab yoshida, psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, mantiqiy fikrlashni, muammoni hal qilish uchun nostandart yondashuvni shakllantirish zarur. Agar maktabgacha yoshda bolaning o‘yin faoliyati yetakchi bo‘lsa, boshlang‘ich maktabda o‘qishga yo‘naltirish mavjud. Fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish boshlang‘ich maktabda ustuvor ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolani o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma‘lumotlarni topishga o‘rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo‘lmasa, keyinchalik bolaning boshlang‘ich maktabda o‘qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim: tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish va eng muhimi, mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish,



g'ayrioddiy yechimlarni izlash. Aqliy faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, o'qitilishi va rivojlanishi kerak. Zamonaviy dunyoda bola ko'pincha shunga o'xshash qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun bu mavzu bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi. Rivojlanish muammolari ko'plab o'qituvchilar va psixologlarni qiziqtirgan (P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. N. Leontiyev, A. R. Luriya, P. I. Zinchenko, A. A. Smirnov, B. M. Velichkovskiy, G. G. Vuchetich, Z. M. Istomina, G. S. Ovchinnikov, J. Piaget).

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 4-sinf o'quvchilarining hammasi ham mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga to'liq yoki hech bo'lmaganda qisman ega emaslar. Ba'zan ba'zi o'quvchilar hatto o'rta maktabda ham ularni o'zlashtirmaydilar. Ushbu dalillarning barchasi boshlang'ich maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi muayyan muammolarni, shuningdek, bolalarga aqliy operatsiyalarning asosiy usullarini o'rgatish bo'yicha maqsadga muvofiq ish olib borish zarurligini ko'rsatadi. Ko'pincha, ushbu yo'nalishdagi ishlar kichik o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga eng samarali ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlarni, o'qitish usullari va pedagogik texnologiyalarni aniqlashga qaratilgan. Natijalari ko'pincha ikkita muammoni hal qildi: olingan bilimlarning mazmuni qanday bo'lishi kerak va o'qituvchi o'quvchilar ongiga qanday ma'lumot yetkazishi mumkin. Axir bilimlarni mexanik ravishda o'rganish mumkin, fikrlashning oqilona usullari ularni tushunishga imkon beradi.

O'quvchilarda diqqat va tasavvurlari rivojlanadi, o'quv materiallarini idrok qilish orqali ularning bilish faolligi oshadi. Boshlang'ich sinflarda sifat turkumini o'rganish tizimi o'quv materialini leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar savod o'rgatish davridan boshlab, to 4- sinfga qadar belgi bildiruvchi so'zlarning — sifatning leksik va grammatik ma'nolarini boshlang'ich sinf ona tili dasturi hajmida o'rganadilar. Savod o'rgatish davrida belgi bildirgan so'zlarning ma'nolarini o'qituvchining "Mazasi qanday olma? Rangi qanday olma? Hajmi qanday olma?" kabi savollari asosida kuzatish orqali amaliy bilib boradilar. Sifatni o'rgatishda yana rangli rasmlardan foydalanish juda katta samara beradi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etib, uning hayot tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi, ularga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Asosiysi, o'quvchilar mustaqil va amaliy izlanadilar. Til birliklarini o'zlari qidiradilar, topadilar va o'zlashtiradilar. Natijada, "Sifatlar nimaning belgisini bildiradi? Ular qaysi so'zlar bilan bog'lanib keladi?" kabi savollarga bema'lol javob beradilar. Ular tushunchalarini yanada aniqlash maqsadida ta'limiy o'yinlar tashkil qilinadi. O'quvchilar matn yaratishga bosqichma-bosqich: so'z ustida ishlash, gap va uning mantiqiy bog'lanishi ustida ishlash, og'zaki hikoya tuzish va uni yozma shakllantirish tarzida maxsus tayyorlab boriladi. Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirish va aqliy hamda amaliy, mustaqil faoliyatlarini samarali bo'lishiga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2023 yil 22 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr 5-6 bet
3. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.13-14 bet
4. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". «2» «O'zbekiston». NMIU, 2018. 229 bet
5. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.
6. Muslimov N va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.

